
Akademik litseyning 2 nafar o'quvchilari Janubiy Koreya Respublikasiga jo'nab ketishmoqda!

O'zbekiston - Janubiy Koreya respublikalari o'rtasidagi diplomatik aloqalar doirasida Janubiy Koreyaning Kyungpook viloyatidagi maktablarda o'zbekistonlik yoshlar uchun "Madaniyatlar almashnuvi" loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyihada ishtirok etish uchun Akademik litseyning ikki nafar o'quvchilari: **Shaxriyorov Daler** va **Amrillayeva Sabrinalar** 11-15 dekabr sanalarida **Janubiy Koreya respublikasida** bo'lib qaytishadi.

Safar oldidan Akademik litsey ijrochi direktori Boburjon Abdurazzoqov o'quvchilar bilan uchrashib suhbat o'tkazdi. Uchrashuv davomida direktor o'quvchilarga o'z tavsiya va ko'rsatmalarini berib, ularga oq yo'l tiladi!

